

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA ZOOFRAZEOLOGIZMLAR TARJIMA TAHLILI

Ilhomova Sevinch Baxtiyorovna

Qarshi Davlat Universiteti

Xorijiy tillar fakulteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi

2-bosqich talabasi

ilhomovasevinch101@gmail.com

+998953462107

Ilmiy rahbar: Yuldoshev D.N.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17730944>

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ingliz va o'zbek tillaridagi zooterminlar asosidao'xshatishlarni o'rganishga bag'ishlangan. Zootermin komponentli o'xshatishlar hayvonlar bilan bog'liq obrazlarni ifodalashda muhim vosita bo'lib, madaniy xususiyatlarni aks ettiradi. Tadqiqotda har ikki til uchun zootermin o'xshatishlarining leksik-semantik tahlili o'tkazilib, ularning umumiylik va o'ziga xoslik jihatlari aniqlangan. Ingliz tilidagi "as sly as a fox" yoki o'zbek tilidagi "bo'ri kabi och" kabi iboralar tahlil qilinib, ularning madaniy va semantik asoslari ochib beriladi. Natijalar zootermin komponentli o'xshatishlarning tillararo tarjimada, madaniyatlararo kommunikatsiyada va lingvistik tadqiqotlarda ahamiyatini yoritadi. Ushbu maqola tilshunoslikda frazeologik birliklar va ingliz va o'zbek tillarida zoonim komponentli frazeologik birliklarning o'rganilishi haqida so'z boradi. Zoonim komponentli frazeologizmlar va maqollar yuzasidan tilshunos olimlarning fikrlari bildiriladi va misollar bilan asoslanadi.

Kalit so'zlar: hayvon nomlari, ilmiy atamalar, iboralar, frazalar, akademik lug'at, ilmiy lug'at.

Abstract. This study examines similes based on zoonyms in English and Uzbek. Zoonym-component similes play an important role in expressing imagery related to animals and reflect cultural characteristics. The research analyzes the lexical-semantic aspects of such similes in both languages, identifying their commonalities and unique features. For example, the English phrase "as sly as a fox" and the Uzbek phrase "bo'ri kabi och" (as hungry as a wolf) are examined to reveal their cultural and semantic foundations. The findings highlight the significance of zoonym-component similes in translation, intercultural communication, and linguistic studies. This article explores the study of phraseological units in linguistics, focusing on zoonym-component phraseological expressions in English and Uzbek. It examines how these expressions are analyzed and interpreted. The research also presents linguistic scholars' perspectives on zoonym-component idioms and proverbs, supporting them with examples.

Key words: animals names, scientific terms, idioms, phrases, academic dictionary, scientific dictionary.

Kirish.

O'zbek tili tasviriy ifodalar, shuningdek, frazalarga boy bo'lgan tillardan biridir. Xususan, frazeologizmning o'zi ham tilimizning boyligini, undagi ma'no imkoniyatlariningnaqadar kengligini ko'rsatuvchi dalillardan hisoblanadi. Biroq ingliz tili va uzbek tilida frazalar idiomalar kabi hodisalaridan farqlab olishda ta'lim sohalarida va lug'atchilikda muayyan qiyinchiliklar, o'zaro ziddiyatli fikrlar mavjud. O'zbek tilshunosligida mavjud bo'lgan tadqiqotlarni o'rganish va ilmiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida va ingliz tilidaZoo frazeologizmlar ularning yuzaga kelishi, xususiyatlari haqida ma'lum izlanishlar olib borishni talab qiladi.O'zbek tili tasviriy ifodalar, shuningdek, frazalarga boy bo'lgan tillardan

biridir. Xususan, frazeologizmning o'zi ham tilimizning boyligini, undagi ma'no imkoniyatlarining naqadar kengligini ko'rsatuvchi dalillardan hisoblanadi.

Biroq ingliz tili va uzbek tilida frazalar idiomalar kabi hodisalaridan farqlab olishda ta'lim sohalarida va lug'atchilikdamuayyan qiyinchiliklar, o'zaro ziddiyatli fikrlar mavjud. O'zbek tilshunosligida mavjud bo'lgan tadqiqotlarni o'rganish va ilmiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida va ingliz tilida Zoofrazeologizmlar ularning yuzaga kelishi, xususiyatlari haqida ma'lum izlanishlar olib borishni talab qiladi. Frazeologik birliklarning so'zlardan asosiy farqi, ular ob'yektiv reallikni, ma'lum voqea-hodisani nomlash uchun emas, balki unga nisbatan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi. Tildagi frazeologik birliklarning asosiy qismi ma'no jihatdan insonga qaratilgan, ular kishining biror jismoniy, ruhiy, aqliy-intelektual xususiyatini, hatti-harakatini ifodalaydi. Shu sababli, frazeologik birliklarning ma'no tarkibida ko'pincha, konnotativ element ishtirok etadi. Buelement frazeologik birliklarning denotative ma'nosiga emotsional ekspressiv bo'yoqdorlik yuklaydi. Ikki tilli frazeologizmlarning bir paytning o'zida mazkur tillarning lug'at boyligini solish-tirishda ham qo'llaniladi. Zoofrazeologik birliklar semantik strukturasi kompleks tahlil qilindi va mavzuiy guruhlariga ajratildi. Zoofrazeologizmlarda qo'llanilgan zoonimlar mazkur halq urf-odatlarini, tariixi, madaniy hayoti bilan bog'liqligi aniqlandi.

Zoofrazeologizmlarni o'rganilishini nazariy jihatlarini asoslandi. Zoofrazeologik birliklarning lingvomadaniy jihatlarini ochib berildi. Zoofrazeologizmlar tarkibida uy hayvonlari: it, mushuk, qo'y, ot, ho'kiz, sigir, echki, tuya, tovuq; yovvoyi hayvonlar: tulki, quyon, yo'lbars, ayiq, bo'ri, sher, to'ng'iz; sudralib yuruvchilar: ilon, toshbaqa; kemiruvchilar: sichqon, olmaxon; qushlar: chumchuq, qarg'a, bulbul, bedana, mayna, g'oz, o'rdak, tovuq; suvda yashovchilar: baliq, qurbaqa; hasharotlar: pashsha, chivin, bit, burga, ari va h.k. zoonimlar ishtirok etadi. Ushbu maqolada hayvon nomlari bilan bog'liq iboralarni inglizchava o'zbekcha muqobil variantlarini tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ko'tarilgan muammoni ochib berishda struktural va komponent tahlil, qiyosiy-tavsifiy tahlil usullari qo'llanildi. Maqolada ko'tarilgan muammoni ochib berishda tavsifiy, tipologik metodlar, matnda pragmatik, lingvomadaniy tahlil usullari qo'llanildi. Qiyosiy tahlil metodi: Har ikkala tilga xos o'xshash va farqli zoomorfik o'xshatishlarni aniqlash. Semantik tahlil: Zoomorfik o'xshatishlarning ma'no jihatidan tahlili, ularning qanday xususiyatlarni ifodalashini o'rganish. Leksikografik tahlil: Har bir tildagi o'xshatishlar va ularning qo'llanilish kontekstini o'rganish uchun lug'at materiallarini tahlil qilish.

Natijalar va muhokama.

O'zbek xalqi qadimdan hayvonlarni xonakilashtirgan, chorvachilik bilan shug'ullangan qiradirlarda yilqi boqishgan. Chorvachilikda asosan qora mol, sigir qo'y va sigir singari uy hayvonlari kishilarning to'q hayot kechirishlariga xizmat qilgan bo'lsa, it uy-o'choq qo'riqchisi, tulki, bo'ri va shoqollar kishilarning halovatini o'g'irlagan. Shu kabi omillar zoonimlarning tilimiz va adabiyotimizda keng qo'llanishiga sabab bo'lgan it ot va mushuk bilan bog'liq frazeologizmlarning nisbatan ko'p ekanligiga guvoh bo'lgan edik.

Zooterminlar – hayvonlar nomlari asosida yaratilgan lingvistik birliklar bo'lib, ular madaniy stereotiplar va obrazlarni ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Lakoff va Johnsonning (1980) metafora va o'xshatishlar haqidagi nazariyasi zootermin komponentli o'xshatishlarni tahlil qilish uchun asosiy metodologik baza sifatida qabul qilinadi. Ushbu

nazariya asosida hayvonlar obrazining kognitiv va lingvistik shakllanish jarayoni o'rganiladi. Ingliz tilidagi zootermin o'xshatishlar ko'pincha hayvonlarning xatti-harakatlari, xarakterlari va ijtimoiy stereotiplarga asoslanadi.

Masalan, "as sly as a fox" (tulki kabi ayyor), "as brave as a lion" (sherdek jasur) kabi iboralar hayvonlarning odamlar xatti-harakatiga nisbatan qiyosiy baho berish vositasi sifatida xizmat qiladi. Deignan (2005) ingliz metafora va o'xshatishlarida hayvonlarning qiyosiy roli haqida tadqiqot olib borgan va ularning ijtimoiy madaniyatdagi o'rnini tahlil qilgan.

Almost never killed a fly—ushbu ingliz xalq maqolini o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qiladigan bo'lsak, hatto pashshani ham o'ldirmagan gapi hosil bo'ladi, biroq o'zbek tilida pashsha hasharoti biroz salbiy ma'no kasb etadi. O'zbek tilida almost never killed a fly paremik birligining muqobili sifatida chumoliga ham ozor bermagan yoki qo'y og'zidan cho'p olmagan kabi frazeologik birligini keltirishimiz mumkin.

Said Ahmadning 'hukm'nomli asarida; Siz notug'ri tushungan bo'lsangiz kerak, u chumoliga ham ozor beradigan bola emas degan jumlaning ingliz tilida tarjimasi:

Nooo, he is almost never killed a fly boy. You are wrong (tarjima muallifniki)

An ass between two bundles of hay—ushbu paremik birlik o'zbek tiliga to'g'ridan to'g'ri Ikki bog' pichan orasida arosatda qolgan eshak tarzida tarjima qilinadi. Ammo semantik jihatdan mos keluvchi frazema esa Ikki quyonning ketidan quvgan ikkalasidan ham quruq qolar. Muloqot jarayoniga tayyor holatda olib kiriluvchi yuqoridagi kabi birliklar xalqlarning joylashuv hududi, milliy urf odatlaridan kelib chiqqan holatda birbiridan farqlanadi. Ammo barchasining markazida shaxsga tarbiya berish, ya'ni didaktik maqsad ko'zlanganligi bois semantik jihatdan bir xilliklarga ham ega.

Alisher Navoiyning 'Mahbub ul-Qulub' asarida; Kimki har ikkisini istasa, har ikkisini boy berur. Chunki ikki quyonni ketidan quvgan kishi, hech birini tuta olmagay jumlasini ingliz tilida:

He who wants both will lose both because he was an ass between two bundles of hay (tarjima muallifniki)

Bats in the belfry, To have- Bu maqolda ko'rshapalak zoonimi ishtirok etgan bo'lib, salbiy ma'no ifodalash uchun xizmat qilgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ingliz xalq maqollarida uchragan hayvon nomlari o'zbek xalq maqollarida umuman ishtirok etmasligi ham mumkin. Yuqoridagi maqolda qo'llangan ko'rshapalak zoonimi o'zbek xalq maqollarida qatnashmaydi. Buning sababi esa, maqollar tarkibida keladigan hayvon nomlari ham o'sha xalq yashash hududining geografik joylashuvi, tabiatiga va eng asosiysi, qaysidir hayvonlarning Ular hayotidagi o'rni va ahamiyati qanchalik katta yoki kichikligiga bog'liqligidir. Alisher Navoiyning 'Farxod va Shirin' dostonida; Telba bo'lmasa bu ishga o'zini kim o'rar edi? Zero, telba Tosh yig'ar, va u mashaqqatni shirin ko'radi deb aytilgan juma ingliz tilida:

Who would do this If not a madman? Because, bats in the belfry, to have, and this challenge seems sweet to him. (tarjima muallifniki)

Buy a pig in a pake, to- Qop ichidagi cho'chqani ko'rmasdan sotib olmoq. Bu maqolning o'zbek tilidagi semantik jihatdan muvofiqlik quyidagichadir:

Savdogarga sunma bo'yningni, Puch yong'oqqa to'ldirar qo'yningni.

Alisher Navoiyning 'Mahbub ul-qulub' asarida; Begonalarga ishonma, ular sening quyningni puch yong'oqqa to'ldirarlar jumlasining ingliz tilida tarjimasi quyidagicha bayon etiladi:

Don't trust on strange people, they can buy a pig in a pake to. (tarjima muallifniki)

Cat in gloves catches no mice - Mushuk qo'lgopda sichqon tutolmas. Bu maqolni "Burga tutmoq uchun ham barmoqni ho'llamoq kerak" maqoli bilan bir xil ma'no ifodalaydi deyishimiz mumkin. Bu ibora odam ehtiyotkorlik yoki sustkashlik qilsa, maqsadiga erisha olmasligini bildiradi. Bu iborani hayotda harakat qilish, jasorat bilan ishlash va imkoniyatlarni qo'ldan boy bermaslik haqida o'git sifatida ishlatish mumkin.

Alisher Navoiyning 'Mahbub ul-qulub' asarida; Kimki bir ishga yetishmoq tilasa, harakat qilmoq lozim, chunki burga tutmoq uchun ham barmoqni ho'llamoq kerak jumalasining ingliz tiliga talqini:

Whoever wants to succeed in something, must try, because a cat in gloves catches no Mice. (tarjima muallifniki)

Cat's away, when the mice will.- O'zbekcha ma'nosi: Mushuk ketsa, sichqon o'yin tushar. Ekvivalenti: Mushukning o'lgani-sichqonga to'y. Bu iboraning ma'nosi shuki, "Rahbar yoki nazorat qiluvchi kishi yo'q bo'lsa, odamlar erkinroq harakat qiladi yoki tartib buzilishi mumkin." O'zbek tilida bu maqolaga yaqin ma'noda quyidagicha tarjima qilish mumkin: "Eshik oldi egasiz bo'lsa, itlar unda o'ynaydi." Yoki sodda qilib tushuntirsak: "Nazorat bo'lmasa, tartib yo'qoladi."

Alisher Navoiyning 'Mahbub ul-qulub' asarida; Tartib yuq yerda, yomonlar xursand bo'lishadi, misol uchun mushuk o'lsa, sichqonlar shodlanadi ingliz tiliga muqobil varianti:

Where there is no order, the wicked rejoice for example cat's away, when the mice will.

Fish begins to stink at the head. O'zbekcha ma'nosi: Baliq boshidan sasiy boshlaydi (uzbek tilida sasiy boshlaydi emas sasiydi degan fe'l ishlatiladi va boshlaydi fe'li tushib qolish holati kuzatiladi). Ekvivalenti: Baliq boshidan chiriydi. Bu ibora muammo yoki buzilish avvalo rahbarlik yoki yuqori darajadan boshlanishini anglatadi. Agar tashkilot, jamiyat yoki davlatda muammolar bo'lsa, ko'pincha bunga rahbarlar yoki boshqaruv tizimi sababchi bo'ladi. Masalan, agar bir kompaniya yaxshi ishlamasa, demak, muammo oddiy ishchilarda emas, balki yuqoridagi rahbarlarda bo'lishi mumkin. Alisher Navoiyning 'Mahbub ul-qulub' asarida; Agar podshoh fosiq bo'lsa, raiyatga fasod yetgay chunki baliq boshidan sasiydi jumlasining ingliz tiliga muqobil tarjimasi:

If the king is wicked, let the vassal be corrupt for fish begins to stink at the head.

Dogs bark, but the caravan goes on. O'zbekcha ma'nosi: Itlar hurar, karvon esa o'tar. Bu maqol to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinganda ham muqobil variant bilan mosdir. Bu ibora tanqid, g'iybat yoki qarshilikka qaramay, maqsad sari oldinga intilish kerakligini anglatadi. Ya'ni, odamlar nima desa desin, ishni davom ettirish va yo'ldan qolmaslik muhim. Masalan, kimdir sizni tanqid qilsa yoki to'xtatishga harakat qilsa ham, o'z yo'lingizda davom etishingiz kerakligini bildiradi. Alisher Navoiyning 'Mahbub ul-qulub' asarida; Odamlarning gap-so'ziga e'tibor berish aqilsizlikdur, it hurar, karvon esa o'tar jumlasining ingliz tiliga tarjimasi:

Paying attention to people's talk is foolishness, dogs bark, but the caravan goes on (tarjima muallifniki)

Zoofrazeologizmlar – xalq donoligining boy merosi bo'lib, ular hayotiy haqiqatlarni ifodalashning qisqa, mazmunli va obrazli shaklidir. Ularning qo'llanilishi nutqni ta'sirchan, rang-barang va tushunarli qiladi. Shu sababli, zoofrazeologizmlarni o'rganish va ularni to'g'ri qo'llash tilni boyitadi va madaniy tafakkurni rivojlantiradi. Zoofrazeologizmlarning funksional roli: Nutqni bezash va ta'sirchan qilish – Ular adabiy asarlarda, so'zlashuv nutqida va hatto siyosiy nutqlarda ishlatiladi. Odobi va axloqiy o'gitlar berish – Ularning aksariyati insonlarga

saboq beruvchi ma'no kasb etadi. Madaniy merosni saqlash – Har bir xalqning mentaliteti va tafakkuri ularning zoofrazeologizmlarida aks etadi

Xulosa: Yuqoridagilarga xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki zoofrazeologik birliklar har bir xalqning milliy urf-odati hamda an'analarini verbal vositalar orqali ko'rsatib beradi. Bu birliklarni qiyosiy o'rganish xalqlarning o'ziga xoslilari hamda birlashtiruvchi jihatlarini aniqlashga yordam beradi. Frazalarda qo'llangan zoonimlar ularning hududiy joylashuvi, milliy mentaliteti, diniy qarashlari bilan bog'liq holatda bir-biridan farqlanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Shavkat Rahmatullayev 'o'zbek tilining izohli frazalogik lug'ati', o'qituvchi nashriyoti, Toshkent 1978. 408 sahifadan iborat.
2. Dilrabo Abdurahmonova va Zohidjon Sodiqov 'Tarjimashunoslik terminlarining ko'ptilli lug'at ma'lumotnomasi' Namangan 2013. 144 sahifadan iborat.
3. Dilya Usmonova 'Frazalogik iboralar va ularga misollar'. 8-10-betlar
4. G'aybulloh-as-Salom. Maqol va idiomalar tarjimasi. – Toshkent, 1961. 162 sahifa
5. G'aybulloh-as-Salom. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent, 1983. 119–121-betlar